

"Uchinchi Renessans g'oyasi – Yangi O'zbekiston milliy madaniy yuksalish konsepsiyasining g'oyaviy-metodologik asosi"

Uzbekova Sadoqat Primovna

Toshkent davlat transport universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

E-mail: sadoqatprimovna724@gmail.com

«Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Mirzo Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak»

Sh.M.Mirziyoyev

Annotatsiya. Maqolada Uchinchi Renessans g'oyasining Yangi O'zbekiston milliy madaniy yuksalish konsepsiyasining g'oyaviy-metodologik asosi sifatidagi mohiyati falsafiy-metodologik jihatdan tahlil qilinadi. Mazkur g'oyaning tarixiy-genetik manbalari, nazariy asoslari hamda ijtimoiy-madaniy taraqqiyotdagi konseptual ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, Uchinchi Renessans konsepsiyasining tarixiy vorisiylik, tizimlilik, sivilizatsion va aksiologik yondashuvlarga tayanilgan.

Kalit so'zlar: Uchinchi Renessans, Yangi O'zbekiston, milliy madaniy yuksalish, metodologiya, tarixiy vorisiylik, aksiologik yondashuv, sivilizatsion taraqqiyot, milliy g'oya.

Аннотация. В статье анализируется сущность идеи Третьего Возрождения как идеологической и методологической основы концепции национального культурного подъема Нового Узбекистана с философской и методологической точек зрения. Раскрываются историко-генетические источники, теоретические основы и концептуальное значение этой идеи в социально-культурном развитии. Также обосновывается опора концепции Третьего Возрождения на исторический, системный, цивилизационный и аксиологический подходы.

Ключевые слова: Третье Возрождение, Новый Узбекистан, национальный культурный подъем, методология, исторический, аксиологический подход, цивилизационное развитие, национальная идея.

Abstract. The article analyzes the essence of the idea of the Third Renaissance as the ideological and methodological basis of the concept of the national cultural rise of New Uzbekistan from a philosophical and methodological perspective. The historical and genetic sources, theoretical foundations and conceptual significance of this idea in socio-cultural development are revealed. It also substantiates the reliance

of the concept of the Third Renaissance on historical succession, systematicity, civilizational and axiological approaches.

Keywords: Third Renaissance, New Uzbekistan, national cultural rise, methodology, historical succession, axiological approach, civilizational development, national idea.

Kirish. Dunyo davlatlari orasida O'zbekiston mustaqil, demokratik va dunyoviy davlat sifatida o'zi tanlagan taraqqiyot yo'lidan shaxdam va tezkor sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda jahonda o'zining munosib o'rnini egallashida keng imkoniyatlar ochilmoqda. Tanlagan yo'limiz haqida yurtboshimiz "Bu yo'l-erkin, demokratik, insonparvar davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, Vatanimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirish va yanada ravnaq toptirishning mustahkam zaminidir"¹ deb ta'rif berganlar. Yangi O'zbekistonning kelajagi bundanda buyuk va rivojlangan bo'lishi bevosita ta'lim tizimiga, bilimli yoshlarga, malakali kadrlarga bog'liq ekanligi nazarda tutilgan holda yurtboshimiz tomonidan Uchinchi Renessans g'oyasiga e'tibor qaratildi. Uchinchi Renessans g'oyasi milliy davlatchiligimiz tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan, nafaqat yurtimizni balki butun jahon sivilizatsiyasining ma'lum sohalariga asos bo'lgan ikki buyuk uyg'onish davrining izchil va mantiqiy davomi hisoblanadi. IX-XII asrlarda hozirgi O'zbekiston hududida yuzaga kelgan Birinchi Renessans davrida buyuk bobokalonlarimizning aqlu-tafakkurlari, zakovatlarini tufayli ilm-fanning matematika, tibb ilmi, astronomiya va falsafa sohalarida jadal rivojlandi, dunyo ahli uchun yangilik bo'lgan va bugungi kunda ham o'z ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan ilmiy yangiliklar, kashfiyotlar dunyo yuzini ko'rdi. Ko'p vaqt o'tmay XIV-XV asrlarda buyuk temuriy hukmdorlarining ilm-fan sohalariga qaratgan e'tibori, homiyligi besamar ketmadi. Ilm-fan, madaniyat va san'at, me'morchilik, astronomiya sohalarida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Har ikki Renessans davridagi tarixiy tajriba Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessansni amalga oshirish uchun ilmiy asos bo'laoladi.

Mazkur maqolaning maqsadi Uchinchi Renessans g'oyasi – Yangi O'zbekiston milliy madaniy yuksalish konsepsiyasining g'oyaviy-metodologik asosi bo'lib xizmat qilishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar, ko'rilayotgan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyatini atroflicha tahlil qilish, hamda sohadagi islohotlarning davlatimiz kelajagini, jamiyatimiz taraqqiyotini va xalqimiz hayotini yuksaltirishidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan yoritib berishdan iborat.

Uchinchi Renessans g'oyasining nazariy va tarixiy ildizlari haqida so'z borganda albatta Renessans atamasiga qisqacha bo'lsa-da izoh berib o'tish lozim deb

¹ Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining Qo'shma majlisidagi nutqi.-T: "O'zbekiston". 2016. –B. 27

o'ylaymiz. Renessans fransuzcha *renaissance*-uyg'onish so'zidan olingan bo'lib, insoniyat ma'naviy taraqqiyotidagi uyg'onish davridir². Olimlar fikricha insoniyat rivojlanish tarixida uch marotaba uyg'onish davri kuzatilgan. Yevropada uyg'onish davri XIII asrdan e'tiboran boshlangan bo'lib, bu ijtimoiy-tarixiy jarayon Yevropaning turli mamlakatlarida turlicha kechganligini ko'rishimiz mumkin. Yevropa uyg'onish davrida hududning qator rivojlangan mamlakatlarida hunarmandchilik, savdo-sotiqning tez suratlarda rivojlanishi, kishilarning shahar tomon intilishlari ortishi, jamiyat va insonlar hayotida shaharlarning roli ortganini ko'rishimiz mumkin. Yangicha iqtisodiy munosabatlarning qaror topishi bilan hamohang ravishda insonlarning turmush tarzini o'zgarishi o'ziga xos madaniyatni yaratilishiga sabab bo'ldi. ...ushbu madaniyat nafaqat dinga, balki ilm va fanning ilg'or yutuqlariga tayana boshladi. Fanning buyuk qudratli qadriyatlari ulug'landi va yanada boyidi³.

Yevropada uyg'onishi davri deya atalayotgan davr boshlanishidan bir muncha vaqt oldin Sharq hududida, aniqrog'i Markaziy Osiyo, Eron, Xitoy hududlarida IX-XII asrlarda ro'y bergan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy hayotdagi yuksalish davriga nisbatan Sharq Renessansi atamasi qo'llanadi. Sharq Renessansi ikki davrga bo'linadi. Birinchisi Markaziy Osiyoda mo'g'ullar istilosigacha bo'lgan davr bo'lib, al-Buxoriy, al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, ibn Sino kabi qomusiy olimlar, astronomiya sohasida o'z davri uchun beqiyos yutuqlarga erishgan al-Farg'oniy, mashhur tarixchi Narshaxiy, mutafakkirlarimizdan Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Xojib kabi buyuk shaxslarning nomlari va ijodi bilan bog'liqdir⁴. ... bu davrda tabiyot ilmi, panteistik falsafa bilan birga islom ilohiyoti ham keng rivojlandi. Muhaddis sifatida butun musulmon olamida mashhur bo'lgan Imom Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy, kalom ta'limotining asoschilari Abu Mansur Motrudi, Burhoniddin al-Marg'inoniy va Abu Homid Muhammad al-G'azzoliylar islom dini rivojiga katta hissa qo'shdilar⁵.

Ikkinchi Renessans buyuk bobokalonimiz sohibqiron Amir Temur va temuriy hukmdorlarining davlat boshqaruvi davriga to'g'ri keladi. Bu davrda ijodiy faoliyat yuritgan yurtdoshlarimizdan Sa'diddin Taftazoniy, Mir Sayyid Sharif Jurjoniy, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, G'iyosiddin Jamshid al-Koshiy, Ali Qushchi, Qozizoda Rumi hazratlari, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, mashhur tarixchilar Mirxond, Xondamirlarning nomlari butun dunyoga mashhurdir. Saltanat rahbarlarining homiyligida ilm-fan rivojlantirildi, me'morchilik san'ati yuksaldi. Mantiq ilmi rivojiga katta ahamiyat berilishi natijasida islom madrasalarida mantiq ilmini o'qitish huquq va tilshunoslik kabi fanlar bilan uzviy holda olib borildi. Diniy ilmlar bilan birgalikda

² Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi., 2010. – B. 492.

³ Shu kitob. –B. 492

⁴ Shu kitob. - B. 628

⁵ Q.Nazarov. Jahon falsafiy qomusi. II tom. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. 2022. – B. 511.

dunyoviy fan sohalari matematika, astranomiya, geometriya, kimyo va boshqa sohalarda ilmiy tadqiqotlar olib borildi va olamshumul natijalar qo'lga kiritildi. Mirzo Ulug'bekning "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asari dunyo yuzini ko'rdi va bugunga qadar o'z ilmiy ahamiyatini saqlab kelayotgani fikrimizning isbotidir.

Mustaqillik davriga kelib ham buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lish maqsadida, aynan shu tarixiy merosni davom ettirish va zamonaviy taraqqiyot bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan, yurtimizda ilm-fan salohiyatini yanada yuksaltirish, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bilan bog'liq ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar pirovardida mamlakatimizni barqaror rivojlanish yo'liga olib chiqish, zamonaviy bilim va texnologiyalarga asoslangan jamiyatni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Bu borada Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Uchinchi Renessans g'oyasi Yangi O'zbekiston milliy madaniy yuksalish konsepsiyasining g'oyaviy-metodologik asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu g'oya mamlakatimizda ilm-fan va uning turli sohalarini qo'llab-quvvatlashga, intellektual salohiyatni bugungi zamon talablari asosida rivojlantirish, ta'lim tizimini innovatsion modernizatsiya qilishga qaratilgan. Bu borada hukumatimiz tomonidan muhim me'yoriy hujjatlar ham qabul qilingan bo'lib, soha rivoji uchun zamin bo'lib xizmat qilmoqda. 2019 yil 3 may sanasida qabul qilingan "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi 4307-sonli Prezident qarori, "Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida malakali kadrlar tayyorlash" to'g'risidagi 2021 yil 30 oktabrda qabul qilingan Prezident qarorlari shular jumlasidandir.

Prezidentimiz "Biz Yangi O'zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda ziyolilarimizga katta ishonch bilan qaraymiz" ⁶ deb ta'kidlaganlar. Ziyolilar, ta'lim tizimida xizmat qilayotgan kadrlar yordamida Yangi O'zbekistonning milliy madaniy yuksalishiga erishish Uchinchi Renessansning tub maqsadidir. Prezidentimizning "...Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq"⁷ deya ta'kidlashlari yuqoridagi fikrimizning isbotidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xalqimiz hozirgi globallashuv sharoitida ma'nan irodali bo'lishi, o'zining hayoti va taqdiri, kelajagi Vatanimizning taqdiri va kelajagi bilan chambarchas bog'liq ekanini chuqur his etmog'i kerak. Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsad yo'lida birlashishimiz kerak.

⁶ Sh. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. "O'zbekiston", Toshkent., 2022. – B. 39.

⁷ Sh. Mirziyoyev. 1-oktabr ustoz va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali nutq. 2020 yil, 30 sentabr. www.president.uz. 2026 yil, 24 iyunda ko'rildi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. "O'zbekiston", Toshkent., 2022. – B. 39.
2. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining Qo'shma majlisidagi nutqi.-T: "O'zbekiston". 2016. –B. 27
3. Qiyom Nazarov. Jahon falsafiy qomusi.II tom. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. 2022. – B. 511.
4. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi., 2010. – B. 492.